https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Unversit of Business and Science,
Ijtimoiy fanlar va raqamli texnologiyalar
fakulteti, 3-bosqich talabasi
O`zganboyeva Mushtariy Qosimjon qizi
+998883460188

XVIII ASR OHIRLARIDA PYOTR I AMALGA OSHIRGAN ISLOHOTLARINI IJTIMOIY SIYOSIY HAYOTGA TA`SIRI (SANKT-PETERBURG,AKADEMIYA,BOLTIQ BO`YI DENGIZI OCHILISHI,PROFESIONAL ARMIYA) MISOLIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada VIII asrning oxirlarida Rossiya podishohi Piyotir I tomonidan amalga oshirgan islohotlarning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotiga bo`lgan chuqur ta`sirini tahlil qiladi.Tadqiqotda Piyotir I ning modernizatsia va Yevro`palashtirish dasturi doirasida olib borilgan asosiy o`zgarishlar ,xususan Sank-Peterburg shahriga asos solinishi,ilmiy Akademiyaning tashkil etilishi,Boltiq dengiziga chiqish va professional armiyani shakilanishi kabi muhim islohotlar ko`rib chiqiladi. Maqolada Sankt-Peterburgning yangi poytaxt sifatida barpo etilishi nafaqat mamuriy markazni ko`cherish,Rossiyani Yevro`pa bilan madaniy,iqtisodiy va siyosiy aloqalarini mustahkamlash vositasi sifatida o`rganiladi.Ilmiy Akademiyaning tashkil etilishi esa Rossiyada ilmiy va ma`rifiy taraqqiyotga turtki bo`lib,ziyoli tabaqaning shakilanishida muhim ro`l o`ynaydi.Boltiq dengiziga chiqish Piyotir I ni tashqi siyosatidagi eng muhim yutug`I sifatida tahlil qilinib,bu orqali Rossiya Yevropa davlatlari tizmiga kuchli raqib sifatida kirib oldi.Professional armiyaga o`tish esa nafaqat harbiy maydonda,balki ijtimoiy tuzumda ham katta o`zgarishga olib erkaklar uchun majburiy etib belgilandi,ushbu jarayon harbiy va davlat tizmini mustahkamlashda asosiy omilga aylandi.

Kalit so`zlar: Akademiya,Sank Peterburg,modernizatsiya,Rossiya,Yevropa, Botiq dengiz,sivilizatsia,Piyotir I armiya.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Kirish: XVIII asrning boshlarida Rossiya dunyoviy davlat sifatida katta o`zgarishlarga duch keldi,Piyotir I ning hukumronligi(1682-1721) mamlakatning modernizatsiyasi va Yevropa davlatlar tizmiga integratsiyasining hal qiluvchi bosqichi bo`ldi.Ushbu maqolada Pyotir I ning asosiy islohotlarining ijtimoiy va siyosiy hayotga ta`sirini tahlil qiladi,xususan:Sankt-Peterburg shahrining barpo etilishi va uni ahamiyati,fanlar akademiyasini tashkil topishi va ma`arifiy islohotlari,Boltiq dengiziga chiqich hamda baliqchilikva dengizchikil sohasini rivojlanishi,professional armiyani tashkil etish jarayonlari tadqiqot davomida yoritiladi.[3] Sankt-Peterburgning 1703-yilda barpo etilishi Rossiya tarixda muhim burilish nuqtasi bo`ldi,Shahar qurilishi dastlab harbiy strategik maqsadlarda boshlangan bo`lsada,keyinchalik u Rossiyani Yevropaga ochilishining ramziy markaziga aylandi,Neva daryosining og`zida joylashkani tufayli Shahar Boltiq dengiziga chiqish imkoniyatini berdi,bu esa Rossiyaning tashqi savdo va diplomatik aloqalarini sezilarli darajada kenggaytirdi.1712-yilda poytaxtning Moskvadan Sankt-Peterburgga ko`chirilishi nafaqat geografik,balki madaniy va ma`muriy o`zgarishlarini ham anglatadi.Yangi poytaxta davlat boshqaruv tizmi va markazlashuvi kuchaydi.Shahar arxitekturasi va shaharsozligi Yevropa uslubida olib borildi,bu esa Rossiya madaniyatining yangi bosqichini belgilaydi.Sankt-Peterburgning barpo etilishi ijtimoiy hayotga chuqur ta`sir ko`rsatdi,shaharga ko`chib kelayotgan zodagonlar yangi hayot tarziga moslashishga majbur bo`ldilar.Yevropa me`morchiligi,kiyim-kechak,ovqatlanish odatlari yangicha madaniyatning shakillanishga olib keldi.Shaharni tez rivojlanayotgan sanoat markaziga aylanishi bilan yangi ijtimoiy guruhlar ishchilar,hunarmandlar,savdogar lar paydo bo`ldi.[4]

Sankt-Peterburgda fanlar akademiyasini tashkil etilishi Rossiya ilm-fan tarixda muhim voqea bo`ldi.Akademiya nafaqat ilmiy tadqiqotlar markazi,balki oliy ta`lim muasassasi sifatida ham faoliyat yuritdi.Dastlabki yillarda akademiyaga ko`plab chet el olimlari taklif qilindi,ularning ishi milliy ilmiy kadirlarni tayyorlashga asos soldi.Piyotir I davrida dunyoviy maktablar tarmog`i yaratildi,matematika va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

navigatsiya maktablari,muhandislik va artileya maktablari ochildi,1714-yilda zodagon bolalari uchun majburiy ta`lim joriy etish to`g`risida farmon qabul qilindi.[2] 1705-yilda joriy etilgan rekrut yig`im tizmi professional armiya yaratishni asosiga aylandi,bu tizm asosida har yili ma`lum miqdorda askar chaqirildi,ular uzoq muddat hizmat qilishga majbur bo`ldilar.Bu esa doim tayyor turgan professional armiyani shakillantirish imkonini berdi.Piyotir I davrida harbiy ta`lim muassasalari tarmog`i yaratildi,Navigatsiya,artilleriya,muhandislik maktablari ochildi va harbiy bilimlar tizimlashtirdi. Armiyaning texnik jihozlari sezilarli darajada yaxshilandi,zamonaviy artilleriya qurolari,miltiq,va pichoqlar ishlab chiqarila boshlandi,harbiy sanoat rivojlandi yangi qurol sexlari va zavodlari quruldi.[3]

Boltiq dengizining ochilishi dengiz flotini tashkil etilishiga hamda dengizchilik sohalarini jadal rivojlanishiga olib keldi.Dengiz flotining yaratish dasturi mamlakat mudofaasi va tashqi savdosi uchun muhim ahamiyatga ega bo`ldi,Boltiq floti nafaqat harbiy ,balki savdo kemalari uchun ham himoya vazifasini o`tadi buning natijasida mamlakata kemasozlik sohasi ham rivojlandi.[9]

Adabiyotlar tahlili

Piyotir I tomonidan amalga oshirilgan islohotlar jumladan Sankt-Peterburg barpo etilishi ,fanlar akademiyasini tashkil etilishi va Boltiq dengiziga chiqishga doir turli hil asarlar,monografiya,maqolalar mavjud.Bu manbalar qatoriga biz,1989-yilda yozilgan Anisimovning ‘’Viremiya petroviskiy reforem’’asarida Sankt-Peterburgning Yevropaga ochilgan deraza sifatida barpo etilishi Rossiyani g`arbiy dunyoga intogratsiyasining boshlanishi sifatida takidlanadi.Mualif shaharni geografik joylashuvi ma`muriy markaz sifatida tanlanishini strategik qaror deb belgilaydi.[12].Va Yusupovning ‘’Rossiyada ma`rifiy isloxotlar’’ (XVIII asr).Tadqiqotida akademiyani asosiy vazifasi ilmiy kadirlar tayyorlash va xorijiy olimlari jalb qilish ekanligi takidlanadi,muallif bu islohotlarni Rossiyada ilmiy fikirni mustaqil rivojlanishning boshlanishi deb biladi.[2]. Hamda Qodirovni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

O`zbek tilidagi asarida islohotlarni turli ijtimoiy guruhlarga hara xil ta`sir ko`rsatkanligi takidlanadi.U zodagonlar uchun yangi imkoniyatlar ochilgan bo`lsa-da,dehqonlar holati yanada og`irlashganligini ko`rsatadi.[1].

Ushbu adabiyotlar tahlili shuni ko`rsatadiki,Piyotir I islohotlari Rossiya tarixni chuqur o`zgartirgan murakab va ko`p qiralli jarayon bo`lib,uni o`rganishda turli manbalar va yondashuvlarni hisobga olish zarur.

Metodologiya

Mazkur tadqiqot metodologiyasi birinchi darajali manbalar Piyotir I farmonlari,statistik materiallar,O`zbek va Rus tilidagi manbalar hamda maqolalarga tayangan holda tadqiqot ishlari amalga oshiriladi.Tadqiqotda ijtimoiy ,iqtisodiy,siyosiy ta`sir ko`rsatkichlari va turli manbalarni qiyosiy tahlil qilish, metodologik yondashuvlar integiratsiyasi hamda modernizatsiya jarayonlarini o`rganishda yangicha yondashuvlardan foydalanishga qaratilgan.Ushbu metodologiya ilmiy maqolaning tuzulishi,tadqiqot jarayoni va natijalarining ishonchliligni ta`minlaydi.

Natijalar.

Tadqiqot natijalari shuni ko`rsatmoqdaki Piyotir I islohotlari Rossiyani fundamental o`zgartirgan transformation jarayon bo`lib u: geografik yo`nalishni o`zgartirdi(sharqdan g`arbga),ijtimoy tuzulmani qayta shakilantirdi,davlat tizmini modernizatsia qildi,madaniy identifikatsiyani o`zgartirdi.Madaniy markaz’’Yevropaga deraza’’vazifasini o`tadi,urbanizatsia rivojlanishi natijasida zamonaviy shaharlar qurish boshlandi,fanlar akademiyasi va unversitetlar tashkil etilishi hamda bu yerga g`arbdan olimlarni jalb qilish milliy intellektual elitani shakilanishiga va ta`lim tizmini jadal rivojlanishiga olib keldi.Buning natijasida mintaqada ziyoli sinflar guruhi paydo bo`ldi,1725-1750 yilarda 50 dan ortiq ilmiy nashirlar chob etildi va akademiyalarda dars beruvchi professorlar sonni 25 kishini tashkil etdi,ta`lim va tadqiqot ishlari lotin,nemis,fransuz,tillarida olib borildi.[8].

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Boltiq dengiziga chiqishining ta`siri esa Yevropa bilan to`g`ridan to`g`ri savdo aloqalarini yo`lga qo`yishga hizmat qildi va eksport hajmining o`sishi 5 baravarga oshdi hamda dengiz po`rtlarini ko`paytirish ishlari amalga oshirildi va harbiy dengiz floti esa 800 dan ortiq harbiy kemalarga ega bo`ldi.1725-yilning o`zida eksport hajmi 4 millon rubldan 20 million rublgacha oshdi,soliq tushmi ham 3 barobarga o`sdi bu jarayon dengizchilik sohasini jadal rivojlanganligidan dalolat beradi.[9].

Muhokama

Piyotir I islohotlari-bu tarixiy zarurat va shaxsiy irodaning noyob kombinatsiyasi,ular Rossiyani ajralmas Yevropa kuchiga aylantirdi,lekin bu yo`lda katta ijtimoiy qurbonliklar talab qilindi.Bu tajriba shuni ko`rsatadiki,har qanday modernizatsiya dasturi murakkab muvozanatni hisobga olishi kerak:taraqqiyot an`ana va erkinlik va tartib,individual huquqlar va jamoa manfaatlari o`rtasida.Ushbu muhokama shuni ko`rsatadiki,Piyotir Iislohotlari nafaqat o`tmish hodisasi,balkiy zamonaviy modernizatsiya muamolarini tushunish uchun muhim manbadir.Ularni o`rganish orqali biz nafaqat tarixni,balki zamonaviy dunyodagi rivojlanish muamolarini ham yaxshiroq tushunishimiz mumkin.

Xulosa.

Piyotir I islohotlarini asosiy saboqi shundaki,ular Rossiyani abadiy o`zgartirdi,bu o`zgarishlar: Nafaqat tashqi ko`rinishni,balki mamlakatning ichki mohiyatini va keng xalq qatlamining taqdirini hamda kelajak avlodlari taqdirini ham belgilab qo`ydi.Ushbu islohotlar nafaqat Rossiyaning balki butun insoniyat sivilizatsiyasining muhim bosqichidir.Ular bizga o`rgatadiki,haqiqiy taraqqiyot nafaqat tashqi ko`rinish va texnologiyalarni,inson qalbi va aqlini,jamiyatning axloqiy va ma`naviy asoslarini ham o`zgartirishi kerak.Faqatgina shunda o`zgarishlar chuqur va barqaror insonparvarlik tamoyillariga asoslangan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo`ladi.Tarixni muhim bo`g`ini bizga eslatib qo`ydiki: Har qanday buyuk ish katta qurbonliklar,kuchli iroda va chuqur donishmandlikni talab qiladi.

Adabiyotlar ro`yxati

[1]Qodirov Z.(2014). Piyotir I isloxotlari va Rossiya jamiyati.Toshkent:Adabiyot.-B.145-189.

[2] Yusupov M.(2011). Rossiyada marifiy isloxotlar(XVIII asr).Toshkent:Fan va texnologia-.B.89-123.[3] Xakimov R.(2009). Piyotir I va Rossiya armiyasi.Toshkent:Qo`llanma.-B.78-95.

[4]To`raev B.(2003).Rossiyani g`arblashuvi:Piyotir I davri.Toshkent:O`qituvchi.-.B.67-112.

[5]Rahimov S.(2012).Dunyo tarixi.(XVII-XVIII asrlar).Toshkent:O`zbekiston.-B.156-178.

[6] Xolikov N.(2005).Rossiya tarixi (XVIII-XIX asrlar).Toshkent:O`qituvchi.-B. 123-145.

[7]Sobirov A.(2007).XVIII asr Rossiyasi:Ijtimoiy-iqtisodiy o`zgarishlar.Toshkent:Yangi asr avlodi.-B.134-167.

[8] '' Tarix va inson''jurnali.(2015).No2.Piyotir I isloxotlarining Rossiyadagi ijtimoiy natijalari.-B.23-41.

[9] ''O`zbekiston tarixi'' jurnali.(2018).No4.Piyotir I va Rossiyaning Yevropaga ochilishi.-B.45-62.

[10] ''Fan va turmush'' jurnali.(2020).No3.Sankt-Peterburga asos solinishi va uning axamiyati.-B.34-48

[11] Normurodov Sh.(1998).Rossiyada absolyutizm:Piyotir I isloxotlari.Toshkent:fan.-.B.45-89.

[12] Anisimov E.B.(1989).Vremiya petroviskix reform.Lelingirad: Lelinzidat.